

**Mirzayeva Hamida**

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kimyo fani metodisti

---

## **O'QUVCHI YOSHLARNI INTERNET MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB VA OILANING HAMKORLIKDAGI NAZORATI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarni internet tarmoqlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishda maktab va oila hamkorligi masalalari, pedagogik boshqaruva jarayonida internet saytlari resurslari nafaqat o'yinlar, balki muloqot, o'z-o'zini ifodalash, taraqqiy qildirish vositalari bo'lib xizmat qilishini, bolaning axborot olamini mustaqil tafakkur orqali o'zlashtirishi, uning dunyoqarashini kengaytirib, ma'lumotlarni idrok etishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, internet, ta'lim tizimi, innovatsion texnologiya, o'quvchi, xalqaro konvensiya, maktab, oila, jarayon.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы сотрудничества школы и семьи в формировании культуры использования учащейся молодежью сетей интернет, анализируется, что в процессе педагогического управления ресурсы сайтов интернета служат не только играми, но и средствами общения, самовыражения, развития, освоения ребенком мира информации через самостоятельное мышление, расширяя его мировоззрение, восприятие информации.

**Ключевые слова:** информационные технологии, интернет, система образования, инновационные технологии, ученик, международная конвенция, школа, семья, процесс.

**Abstract:** This article examines the issues of cooperation between schools and families in the formation of a culture of using Internet networks by students, analyzes that in the process of pedagogical management, the resources of Internet sites serve not only as games, but also as means of communication, self-expression, development, mastering the world of information by a child through independent thinking, expanding his worldview, perception of information.

**Keywords:** information technology, internet, education system, innovative technologies, student, international convention, school, family, process.

---

**KIRISH:** Dars samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq. Maktablarda innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi hamkorligi izchilligini ta'minlash hamda uni aniq maqsadga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik innovatsiyalar ishtirokchilari innovatsiyalarning yuzaga kelish, namoyon bo'lish va boshqarish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni puxta egallashi lozim. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi.

O'quvchilar maktab va internet kafelaridan tashqari oiladagi kompyuterlardan, internetdan foydalanib kelayotganligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun bolalarning axborot xavfsizligini taminlash masalasi har qachongidan ham dolzarbroq mohiyat kasb etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Hozirgi kunda ta'lrim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lrim maqsadlari o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar, ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

**NATIJALAR:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat-BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak"- deb fikr bildirishlari dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilishi bilan bir qatorda yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif qilinganini aytib o'tish joiz.

O'quvchilarning maktab, oilada, internet kafelarga kirish imkoniyatlaridan tashqari, mobil telefon orqali ham internetga kirishlari tobora ommalashib bormoqda. Bu bir tomonidan kerakli axborotlar olish uchun foydali. Masalan, internet saytlari resurslari nafaqat o'yinlar, balki muloqot, o'z-o'zini ifodalash, taraqqiy qildirish vositalari bo'lib xizmat qilishini, bolaning axborot olamini mustaqil tafakkur orqali o'zlashtirishi, uning dunyoqarashini kengaytirib, ma'lumotlarni idrok etish va muammolarni mustaqil yechish qobiliyatini o'stirishini yaxshi bilamiz.

**MUHOKAMA:** Axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan yoshlar o'zining qibiliyatlarini va imkoniyatlarini kompyuterdan foydalanishni bilmaydigan tengqurlariga qaraganda ko'proq rivojlantira oladilar. Shuningdek, o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qa'ytta qo'ya biladilar hamda idroklarining yorqinligi, fahm -farosatlari bilan ajralib turadilar, lekin bu jarayonga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilmasa internet tarmoqlari bolalar uchun xavfli vositaga ham aylanishi mijumkin. Unda ijtimoiy xavfli va aggressiv mazmunga ega bo'lgan materiallar ham mavjud.

14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'mirlar o'z shaxsiga past baho berishga moyil bo'ladilar. Ular do'stlarining qo'llab quvvatlashini qadrlashadi. Lekin, ota-onalarning maslahat va nasihatlarini e'tiborsizlik bilan eshitishadi. Bu yoshda oilaviy qadriyatlardan ko'ra muhimroq tuyulgan qandaydir guruhi faoliyatida ishtiirketishni ma'qul ko'radilar. Ular o'zlarini kattalardek his qilib, tashqi olam bilan intelektual darajada muloqot qilishga tayyor bo'ladilar. Yangi g'oyalarni o'zlashtirishni yoqtiradilar, biroq, o'zlarini munosib baholash uchun yetarlicha tajribaga ega bo'lmaydilar. O'smirlar ishtimoiy tarmoqlar orqali xavfli kishilar bilan muloqotda bo'lish oqibatida ular siyosiy guruhi yoki turli diniy oqimlar tasiriga tushib qolishlari hech gap emas. Shuning uchun ham ular salbiy ta'sirga berilmasliklarini oldini olishda maktab va oila hamkorligi muhim.

Internet o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berish va ularni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan, ularning jismonan hamda ruhan sog'lom o'sishlariga salbiy ta'si r ko'rsatmasligi uchun ham barcha kattalar ya'ni ota-onalar hamda pedagoglar hamkorlikda o'quvchilarni nazorat qilishlari va xavfli ta'sirni oldini olish choralarini ko'rishlari shart. Bu haqda pedagog olimlar F.M.Kuchukbayev, D.F.Abduaazimova, R.X.Djurayev, M.Divanovalarning "Telekommunikatsiya tizimining globallashuv isharoitida bolalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ota-onalar uchun tavsiya" (Ota-onalar uchun o'quv qo'llanma)ni ota-onalarga targ'ibot qilish farzandlariga bu yo'nalihsda oqilona maslahat bera olishlari uchun yaxshi dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

**O'quvchilarning ijtimoiy-tarmoqlardan foydalanishlarida maktab va oilaning hamkorlikdagi nazorati bo'yicha quyidagi tavsiyalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:**

-ta'lim muassasasi(maktab) tomonidan ota-onalarga farzandlarining ijtimoiy-tarmoqdan foydalanishlari haqida yo'l-yo'riqlar berish, suhbatlar tashkil etish va shu yo'nalihsdag'i adabiyotlarni targ'ib etish;

Ota-onalarga:

-o'quvchi (bola) bilan doimiy muloqot o'rnatishga harakat qiling, uning nimaga qiziqishi va nimadan xavotirlanayotganligini aniqlang. Shunda unga nimaning salbiy ta'siri borligini bilasiz va tegishli foydali maslahatlar bera olasiz;

-o'quvchi (bola) hafta davomida internetda qanday vaqt o'tkazganini yozib borishini iltimos qiling. Sunda unga muammoni ko'rishi va anglab yetishiga ko'maklashasiz;

-o'quvchi (bola) internetdan foydalanishini taqiqlamang. Lekin, chegaralangan vaqt bering;

-o'quvchi (bola) bilan o'zaro ishonchga asoslangan muomala va munosabatni yo'lga qo'ying. Bolani xato qilishini oldini olasiz;

-o'quvchi (bola)ni tarmoqda konfidentsiallik qoidalariga rioya qilishga o'rgating. Ularning har qanday vaziyatda oqilona yo'l tutishiga yordam berasisiz;

-o'quvchi (bola) bilan (yoshiga mos) jinslararo sog'lom munosabatlar haqida suhbatashing. Bu uning shu narsalarga qiziquvchanligini qisman qondirib, resursda kattalar jinsiy hayotiga oid materiallarni uchratganida bunga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishiga yordam berasisiz.

Yuqoridagi fikrlarni ko'plab davom ettirish mumkin, asosiysi, o'quvchilarni internetdan to'g'ri foydalanishlarini ta'minlash uchun mакtab va oila hamkorligi orqali fikrlar birligi va uyg'unligida doimiy nazoratga olib tushuntirib borilsa, ularni internetdan maqsadli va oqilona foydalanishlariga ko'maklashgan bo'lamiz.

**XULOSA:**Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bizning bunday salbiy holatlarga qarshi qurolimiz globallashuvning ma'naviyatga salbiy ta'sirini bartaraf etish, g'oyalar kurashi davrida yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni ular ongiga singdirish, jamiat asosi bo'l mish oilalarda sog'lom muhitni shakllantirishdir. Yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. – AQSh, 2017.
2. .“Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // “Xalq so‘zi”, 2017-yil 23-may. 101 (6795).
3. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagи «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni
4. F.M.Kuchukbayev, D.F.Abduaazimova, R.X.Djurayev, M.Divanova “Telekommunikatsiya tizimining globallashuv isharoitida bolalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ota-onalar uchun tavsiya” (Ota-onalar uchun o'quv qo'llanma) Toshkent-2014 yil.
5. Qayumov O'. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O'zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuv jarayonlari. T; “Ijtimoiy fikr”, 2011. -44-45 b.
6. Yusupova L. O'zaro ishonch tarbiya vositasi bo'lsin. - Bola va zamon №2. 2006. -33 b.
7. Turg'unov S.T. Boshqaruva jarayonida tarbiyaviy munosabatlar // Maktab va hayot jurnali. – 2006. – № 1. – 20-23-b.
8. Jo'raev N. Axborot-psixologik xavfsizlik: tajriba va muammo // Jamiyat va boshqaruva, 2007.
9. Шамова, Т. И. Компетентностный подход в образовании — ответ на визуви ХХІ столетия // Проблемы и перспективы развития профессиональной компетентности организаторов образования: сб. мат. научно-практ. конференции. -М.: МПГУ, МАНПО, 2006. - 3-5 с.